


O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi
(paxta, to‘qimachilik va yengil sanoati)
bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent-2023



ISHLAB CHIQILGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2023 yil «7» 08 dagi 344 - sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/R		bet
1.	<i>61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tavsifi.....</i>	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1	<i>61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining ko‘llanishi.....</i>	4
1.1.2	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>5640200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari.....</i>	4
1.2.2	<i>61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy faoliyatlarining ob‘ektlari.....</i>	5
1.2.3	<i>5640200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy faoliyatlarining turlari.....</i>	5
1.2.4.	<i>61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.....</i>	6
2.	<i>61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga kuyiladigan talablar.....</i>	7
2.1.	Umumiy kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	8
2.3.	Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta’minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	10
2.3.1.	<i>Kvalifikatsiya</i>	10
2.3.2.	<i>60210400 – Dizayn (kostyum) ta’lim yo‘nalishi uchun ajratilgan o‘quv fanlari, bloklar bo‘yicha soatlar va kreditlar.....</i>	10
2.3.3	<i>60210400 – Dizayn (kostyum) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha ta’lim dasturining tuzilishi.....</i>	10
	Bibliografik ma’lumotlar.....	12
	Kelishuv varag‘i.....	13

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) bakalavriat ta’lim yo‘nalishining umumiy tasnifi

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlash kunduzgi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi Malaka talabining ko‘llanishi

Malaka talabi ***61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati)*** ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi

1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, o‘lar asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda uz vakolat doirasida bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim tashkilotining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bulimi boshligi, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor- o‘qituvchilari;

- ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini uzlashtiruvchi oliy ta’lim tashkilotining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baxolashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;
- ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;
- oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat kiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta’lim tashkilotlariga o‘qishga kirayotgan abiturientlar, o‘larning ota- onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatlarining tavsifi.

1.2.1. 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrular kasbiy faoliyatining sohalari:

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) bakalavriat ta’lim yo‘nalishi – fan, ishlab chiqarish va xizmat

ko'rsatish sohasidagi yo'naliш bo'lib, mehnat muhofazasini ta'minlash, inson mehnati va faoliyati uchun qulay texnosferani (inson tomonidan shakllantirilgan muhit) shakllantirish, texnika xavfsizligini ta'minlashning muhim jihatlarini, zamonaviy texnik vositalardan, nazorat usullaridan va prognozlardan oqilona foydalanish hisobiga inson hayoti va sog'lig'ini asrash, xodimlarning mehnat muhofazasi yuzasidan o'qitish va bilimlarni sinash, mehnat bozori infratuzilmasining bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

1.2.2 61020200- *Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to'qimachilik va engil sanoati)* ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining ob'ektlari:

- mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lган xavflarni oldindan aniqlash va ularni kamaytirish chora-tadbirlarini ishlab chiqish;
- mehnat muhofazasi sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish;
- ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq bo'lган xavflarida xodimlarining hayotiga sal'biy ta'sirini kamaytirish;
- mehnatni muhofaza qilish xizmati faoliyatini tashkil qilish;
- xavfli ishlab chiqarish va texnologik jarayonlarda mehnat muhofazasi va xavfsizlik texnikasi qoidalariga amal qilinishini ta'minlash;
- mehnat muhofazasini ta'minlash masalalariga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish;
- texnogenrisklarni baholash usullari va vositalardan amlaiyotda foydalanish;
- xodimlar sog'lig'ini xavflardan muhofazalash usullari va vositalari qo'llash;
- ishlab chiqarishda ko'rsatiladigan antropogen ta'sirlarni va xavflarni me'yorlashtirish qoidalari amaliyotga joriy qilish;
- texnika xavfsizligini ta'minlash vositalari va usullaridan o'z o'rнida foydalanish;
- insonni turli vaziyatlarda qutqarish usullari va vositalari.

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to'qimachilik va engil sanoati) ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan utgandan keyin, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniklanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

1.2.3. 61020200- *Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to'qimachilik va engil sanoati)* ta'lim yo'naliшhi bo'yicha bakalavrлar kasbiy faoliyatlarining turlari

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstrukturlik;*

- *axborot-tahliliy faoliyat;*

1.2.4. 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy vazifalari.

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob’ektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi kuyidagi kasbiy vazifalarini bajarishga kodir bolishi lozim:

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

- ilmiy tadqiqot institutlari va ilmiy markazlarda ta’lim yo‘nalishlaridagi fanlar va ularni o‘qitish metodikasiga oid mavzularda tadqiqot olib borish;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarda innovatsiyalarga asoslangan ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlarini amalga oshirishga qatnashish;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalarga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-texnika yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o‘rganish;
- tarmoqlar va sohalar bo‘yicha korxonalardagi muammolar mavzulari bo‘yicha iqtisodiy axborotlarni yig‘ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;
- internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda qidirish va topish;
- ta’lim yo‘nalishlaridagi fanlarga oid ilmiy to‘plamlar, mahalliy va chet el ilmiy tadqiqot yutuqlarini o‘rganish;
- ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;
- ma’lumotlarni jamlaydi, qayta tayyorlaydi, mavzu bo‘yicha ilmiy ma’lumotlarni tizimli tahlil qilish;
- tadqiqot natijalari va ishlanmalarini tadbiq etish;
- ilmiy muammolar echimi natijalarini amaliyotga joriy etish ***qobiliyatlariga ega bo‘lishi lozim.***

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

- ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;
- ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejashtirish;
- zamonaviy axborot texnologiyalar tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash metodlari va mexanizmlarini ishlab chicish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilish;
- kasbga oid muammolar echimlarini amaliyotga tatbiq etish;

- ishlab chiqarish jarayonida sifatni boshqarish;
- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;
- fikrlar har xil bo‘lgan sharoitda boshqaruv qarorlarini qabul qilish;
- birlamchi ishlab chiqarish zveno ishini tashkil qilish va uni boshqarish;
- bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;
- ishlab chiqarish jarayonlarining atrof-muhit muhofazasi, yong‘in, texnika va mehnat xavfsizligi talablariga mosligini monitoring qilish qobiliyatiga ega bo‘lishi kerak.

Loyihaviy-konstrukturlik faoliyatida:

- xavfsizlikni ta’minlash vositalarini muayyan sharoitlarda qo‘llashga nisbatan ma’lum tizim va uslublar asosida asosiy ko‘rsatkichlarni tanlash va hisoblash;
- xavflarni identifikatsiyalash va ular miqdoriy ko‘rsatkichlarini aniqlash va o‘lchash;
- ish o‘rinlarini optimallashtirishda ish sharoitlarga ta’sir etuvchi omillarni maqbul qiymatlarini tizimi yondoshuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish;
- bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo‘yicha matematik, informatsion va imitatcion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;
- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- texnik himoya vositalarining parametrlari va ishchanlik qobiliyatini aniqlash bo‘yicha sinovlarni o‘tkazish;
- amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo‘llash qobiliyatlariga ega bo‘lishi kerak.

Axborot-tahliliy faoliyatida:

- boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhitni omillari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, qayta ishslash va tahlil qilish;
- qaror qabul qilish, faoliyatni rejorashtirish va boshqarish uchun ma’lumot to‘plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishslashini boshqarish;
- tashkilotning ichki hujjat aylanish tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatini turli ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma’lumotlar bazasini yuritish;
- loyihalar samaradorligini baholash;
- axborot-tahlil faoliyati natijalari bo‘yicha hisobot tayyorlash;
- boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

2. 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va engil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrarning kasbiy kompetensiyalariga ko‘yiladigan talablar

2.1. Umumiy kompetensiyalar:

- Texnologik jarayonlarni mohiyatini matematika va ehtimollar nazariyasini nuqtai nazaridan tahlil qilish ko‘nikmalariga ega bo‘lish
- Texnologik jarayonlarning fizika mohiyatini aniqlash va muhandislik sohasi bilan bog‘liqliklar bo‘yicha dastlabki bilimlarini oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish
- Sanoatda kimyo texnologiyalardan foydalanishda dastlabki bilimlarini musthkamlash ko‘nikmalariga ega bo‘lish

- Texnologiyalarni inson va atrof muhitga ziyon etkazishini kamaytirish yo'llarini o'rganish, ekologik toza texnologiyalarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lish

- Talabalarni hozirgi davrda jamiyatimiz ma'naviy hayotida sodir bo'layotgan o'zgarishlar, bu jabhadagi muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'nikmalariga ega bo'lish

- Inson salomatligini mustahkamlash, jismoniy qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan ijtimoiy faoliyat sohasi ko'nikmalariga ega bo'lish

2.2. Kasbiy kompetensiyalar:

- me'yoriy-huquqiy hujatlarni izlash, tahlil qilish va o'zlarining professional faoliyatlarida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- qabul qilingan qarorlarning ijtimoiy ahamiyati nuqtai nazaridan javobgar bo'lish va tashkiliy va boshqaruv qarorlarini topish qobiliyatiga ega bo'lishi;

- ta'lim yo'naliishiga muvofiq kasb faoliyati sohalarida erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning rivojlanish istiqbollari haqida tasavvur hosil kilishi;

- muhandislik fizikasi doir uslublar, uning texnikaga oid boshqa fanlar bilan o'zaro bog'likligi, o'rni, mexanika va uning ahamiyati, optika va texnologik uskunalardagi optik qurilmalar, issiqlik texnikasi va uning texnologik uskunalarda qo'llanishi, elektr tizimlari va ularni qo'llanishi, fotonika va uning ahamiyatini;

- axborot texnologiyalarining texnik tizimlardagi vazifalari, yo'naliishlari va uslublari, texnik tizimlarda ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish usullari, axborot texnologiyalarining zamonaviy texnik vositalari, ma'lumotlarni qayta ishlash dasturlari;

- muhandislik va kompyuter grafikasining yo'naliishlari va uslublari, geometrik shakllarni analiz va sintez qilish, uch o'lchamli jismalarni tekislikdag'i proyektsiyalarini qurish, geometrik modellashtirish usullarini o'rganish, kompyuterda modellashtirish usullarini;

- metrologiya va standartlashtirish yo'naliishlari va uslublari, texnologik jarayonlarning omillarini o'lhashda metrologik ta'minot, o'lhash vositalarini ko'rikdan o'tkazish, omillarni o'lhash usullari va uskunalar, standartlarning turlari, standartlarni ishlab chiqish va tasdiqlash tartibini;

- isqtisodiyoti va menejmenti yuzasidan korxona faoliyatini rejalashtirish, moddiy va moliyaviy resurslarni qidirish, korxona faoliyatini boshqarish va ijroni nazorat qilishni;

- sanoat ekologiyasi borasida tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, atrof muhit ifloslanishini oldini olish, chiqindilarni tozalash, ekologik toza manbaalardan foydalanishni;

- hayot faoliyati xavfsizligi bo'yicha hayot uchun xavfli bo'lgan manbaalarni aniqlash, xavfning oldini olish va undan himoyalash, sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda bajariladigan ishlarni rejalaradirish va sodir bo'lgan

favqulodda vaziyatlarda qutqaruv tadbirlarini amalga oshirish, sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavflardan saqlashni;

- nazariy mexanikaning, vazifalari, yo‘nalishlari va uslublari, statika, statikaning asksiomalari, jism muvozanati shartlari, kinematika, asosiy tushunchalar, harakatning kinematik xarakteristikalari, dinamika, dinamikaning aksiomalari, harakat turlarini;

- amaliy mexanika bo‘yicha mashina va mexanizmlar nazariyasi, asosiy tushunchalar, kinematik juftlikning erkinlik darajasi, mexanizmlarning kinematik tahlili, mashinalarning dinamik tahlili, materiallar qarshiligining asosiy tushunchalari, real konstruksiya va uning hisoblash chizmasi, ta’sir etayotgan kuchlar va tayanch reaksiyalari, mashina detallari, asosiy tushunchalar, zamonaviy mashinalarga qo‘yiladigan talablar, mashina detallariga ta’sir etayotgan kuchlar, mashina detallarini loyihalash bosqichlari;

- elektrotexnika va elektronikaning yo‘nalishlari va uslublari, elektotexnik qurilmalarning turlari, chiziqli o‘zgarmas tok zanjirlari, sinusoidal o‘zgaruvchan elektr toki zanjirlari, uch fazali elektr zanjirlari, elekrt mashinalari va apparatlari, elektron qurilmalar, diskret qurilmalarni;

- Mehnat jarayonida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, xususiyatlarini, oqibatlarni va ularni bartaraf etish choralar, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish elektr qurilmalari, uskunalar, mashina va mexanizmlarini ishlatganda texnik xizmat ko‘rsatganda va ta’mirlashda ko‘riladigan asosiy texnika xavfsizligi talablari korxona faoliyat davomida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan xavflarni talablari, korxona faoliyati davomida sodir bo‘lishi mumkin xavflarini taxlil qilish uslublari ularni nazariy va amaliy kunikmaga ega bo‘linadi.

- Yonish va portlash jarayonlarini amaliy va tajriba yo‘llari bilan aniqlash, yonish jarayonining xavfeligini tahlil qilish, jarayonning termodinamik va ekzotermik omillarini aniqlash, yong‘in va portlash yuz berganda fuqarolar muhofazasini va moddiy boyliklarni asrashni tashkil etish, zarbali yong‘in bosimni hisoblash, qurilish konstruksiyalarini o‘tga bardoshliligini amalga oshirish, materiallarni yonmaydigan toifaga o‘tqazish, yonish jarayonining turli omillari - o‘z-o‘zidan alanganish, chaqnash harorati, o‘z-o‘zidan yonish, kislorod tanqisligi va boshqalarni aniqlash, kuygan va talafot olgan insonlarlarga birlamchi tibbiy yordam ko‘rsatish va boshqa muhim vazifalarni bajara oladigan bilim, ko‘nikma va kasbiy malakaga ega bo‘linadi

- Inson xavfsizligini ta’minlash ayniqsa uni ish jarayonida bevosita ishlab chiqarishda o‘z dolzarbligini ko‘rsatadi. Chunki zamonaviy korxonalarining xarakterli tomoni shundaki, unda bir korxonaning o‘zida turli-tuman va tez o‘zgaruvchan texnologik jarayonlarda materiallar, yuqori darajali mexanizatsiyalashgan va avtomatlashtirilgan elektr hisoblash texnikasi bilan jihozlangan zamonaviy potok tizimlar qo‘llanilmoqda. Bular albatta bir tomonidan tejalgan jarayonlarni qisqartirishga maxsulot sifatini yaxshilashga va mehnat sharoitini xavfsizlantirishga qaratilgan, lekin ikkinchi tomonidan ularda ishlovchi ishchilardan katta diqqat,

sezuvchanlik va butun ish kuni davomida aqliy zo'riqish talab qiladi. Bu esa asablarning taranglashuviga va pirovard natijada kasbiy kasallik va jarohatlarga sabab bo'lishi mumkin.

- Texnologik jarayonning murakkabligi, texnologik rejimlarga bo'lgan talablarining yuqoriligi mehnat muhofazasi tadbirlariga bo'lgan talablarining ortib borishini talab qilmoqda. Ishlab chiqarish xavfsizligi muammolarini o'rganish va ularga xavfsizlik choralarini ko'rish ko'nikmalariga ega bo'lish.

2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallahni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.

Talabalar umumiy va kasbiy kompetensiyalar, bilim va ko'nikmalarni egallashi o'quv rejasiga mantiqiy ketma-ketlikda kiritiladigan majburiy va tanlov fanlarni o'zlashtirish, amaliyotlarni o'tash hamda boshqa o'quv mashg'ulot va akademik vazifalarni bajarish yordamida amlga oshiriladi.

Majburiy fanlar - bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bevosita umumiy va va kasbiy kompetensiyalar egallahsga qaratilgan, zarur tayanch bilim va ko'nikmalarni ta'minlaydigan fanlar majmuasidir.

Tanlov fanlar - ta'lim yo'nalishi dorasida ixtisoslashuvdan kelib chiqib chuqurlashtirilgan, qo'shimcha bilim berish, bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarni kengaytirishga xizmat qiladigan, shuningdek, talabaning shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab quvvatlashga qaratilgan fanlar majmuasidir.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi.

Malakaviy amaliyot - umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahtamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi

2.3.1. Kvalifikatsiya: muhandis texnolog

2.3.2. 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to'qimachilik va engil sanoati) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar:

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilgan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	5130	171
Tanlov fanlar	1620	54
Malakaviy amaliyot	300	10
Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5

2.3.3. 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to'qimachilik va engil sanoati) ta'lim dasturining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaganin g hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
1.00		Majburiy fanlar	5130	171	
1.01	O'RT1205	O'zbek (rus) tili	150	5	2
1.02	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	KIM1105	Kimyo	150	5	1
1.04	XT11210	Xorijiy til 1,2	300	10	1,2
1.05	FIZ11210	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.06	OM11210	Oliy matematika 1,2	300	10	1,2
1.07	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	TTAT1206	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	180	6	2
1.09	MKG1106	Muhandislik va kompyuter grafikasi	180	6	1
1.10	MS2305	Metrologiya va standartlashtirish	150	5	3
1.11	SIM4705	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	150	5	7
1.12	FAL2404	Falsafa	120	4	4
1.13	EKA3604	Sanoat ekologiya	120	4	6
1.14	NazM2305	Nazariy mexanika	150	5	3
1.15	XFX23409	Hayot faoliyati xavfsizligi	270	9	3,4
1.16	FVX2345615	Favqulorra vaziyatlarda xavfsizlik	450	15	4,5,6
1.17	MMX35610	Mashina va mexanizmlar xavfsizligi	300	10	5,6
1.18	MM35610	Mehnat muhofazasi	300	10	5,6
1.19	YOX234510	Yong'in xavfsizligi	300	10	4,5
1.20	AMEX35609	Amaliy mexanika	270	9	5,6
1.21	SX47810	Sanoat xavfsizligi	300	10	7,8
1.22	TTJ2334515	Tarmoq texnologiyasi va jihozlari (paxta, yigirish, to'quv, ipak)	450	15	3,4,5
2.00		Tanlov fanlar	1620	54	
2.00		<i>Tanlov fanlar (9 tagacha fan)</i>	1620	54	3,4,5,7,8
		Jami:	6750	225	
		Malakaviy amaliyot	300	10	4,6,8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5	8
		Jami:	450	15	
		HAMMASI	7200	240	

Bibliografik ma'lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

Tayanch so'zlar:

bakalavriat, ta'lif sohasi, ta'lif yo'nalishi, kasbiy faoliyat turi, kasbiy faoliyat ob'ekti, kasbiy faoliyat sohasi, hayotiy faoliyat xavfsizligi, insonni yashash muhiti, tabiiy va texnogen xavflar, xavflar maydoni, xavflar manbai,nazorat vositalari, risklar, texnik tizimlar, monitoring, ekpertiza, himoya vositalari, favqulodda vaziyatlar, fuqaro muhofazasi, xavfsizlik texnikasi, mehnat muhofazasi, kompetensiya, bino va inshootlar, konstruksiya, yonish-portlash, birinchi tibbiy yordam, xavfsizlik, gidrotexnik inshootlar, evakuatsiya, ekologik ekspertiza, o'quv reja, fan dasturi, yakuniy davlat attestatsiyasi, davlat ta'lif standarti, axborot-resurs markazi, ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lif muassasasi, texnik soha, muhandislik ishi, ob'ekt, jarayon, tizim, mashina, texnik vositalar xavfsizligi, texnik nazorat, ilmiy-tadqiqot, loyiha-konstrukturlik, tashkiliy-boshqaruv, nazariy ta'lif, ta'til, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, mustaqil ta'lif, mehnat bozori, kadrlar iste'molchilari, nazorat.

**Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari
hamda kadrlar iste'molchilari**

ISHLAB CHIQILGAN:

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti



Rektor *[Signature]* prof. S.Turabdjanov

2023 yil « 15 » 07

M.O'.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

Rektor *[Signature]* D.Vaxabov

2023 yil « 15 » 07

M.O'.

KELISHILDI:

**O'zbekiston Respublikasi Oliy
ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni
rivojlantirish tadqiqotlari va ilg'or
texnologiyalarni tatbiq etish**

Direktor *[Signature]* Sh.Yakubov

2023 yil « 14 » 07

M.O'.

Jizzax politexnika instituti

Rektor *[Signature]* A.Usmankulov



2023 yil « 14 » 07

M.O'.

"RIM KOLOSS" MChJ direktori

[Signature] A.Abdullayev

2023 yil « 14 » 07

M.O'.

"Industrial technological lines"

MChJ direktori

[Signature] M.Yaxshiyev



2023 yil « 14 » 07

M.O'.

**Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va
yengil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari va o‘quv rejasining
ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta’lim muassasalari va asosiy kadrlar
iste’molchilari o‘rtasida
KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

“ _____” 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.Turabdjanov, Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti rektori D.Vaxabov, Jizzax politexnika instituti rektori A.Usmankulovlar birgalikda TTYeSIda ishlab chiqilgan quyidagi bakalavriat ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

***61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va
yengil sanoati)***

Malaka talablari hamda o‘quv rejani ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5847-sod farmoni, 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-2909-sod, 2017 yil 27 iyuldagagi “Oliy ma‘lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3151-sod, 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish ya ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sod qarorlariga hamda O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 27 oktabrda 43 raqam bilan hisobga olingan “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”ga, shuningdek, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlar va xalqaro talablarga asoslangan. Mazkur malaka talablari va o‘quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste’molchilari tomonidan qo‘yilgan talablar ham inobatga olingan. Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari o‘quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi. Ishlab chiqilgan malaka talablari va o‘quv rejani o‘rnatalishga tartibda tasdiqlashga tavsiya etiladi.

**Islom Karimov nomidagi Toshkent
davlat texnika universiteti rektori**

**Toshkent to‘qimachilik va yengil
sanoat instituti rektori**

**Jizzax politexnika
instituti rektori**

S.Turabdjanov

D.Vaxabov

A.Usmankulov

Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat institutida ishlab chiqilgan 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga

TA Q R I Z

"Ta’lim to‘g‘pisida"gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini ijpo etish, ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyoplanayotgan kadplap sifatining pespublikada amalga oshipilayotgan chuqup iqtisodiy va ijtimoiy islohotlap talablapiga, shuningdek ta’lim, fan, texnika va texnologiyalap pivojlanishining ilg‘op jahon dapajasiga muvofiqligini ta’minalash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog‘liq.

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoati) ta’lim yo‘nalishining malaka talablari va o‘quv rejasasi O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida", qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida"gi PQ-3775-sonli hamda O‘zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi "Oliy ta’limning meyoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to‘g‘risida"gi 259-sonli buyrug‘i, oliy ta’lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o‘zlashtirishi, amaliyotlarni o‘tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko‘nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta’minalovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasasi xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilapda chuqup bilim, mustaqil fikplash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavrarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilari to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta’limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o‘ziga xoslikni saqlash va jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarining tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt byudjetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlari uchun

taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyatda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'lim muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to'qimachilik va yengil sanoati) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrler tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standaptlash tizimi qoidalapi talablapini qoniqtipadi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Jizzax politeknika
instituti rektori



A.Usmankulov

**Toshkent to‘qimachilik va yyengil sanoat institutida ishlab chiqilgan 61020200-
Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoati)
ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrлar tayyorlashning tayyorgarlik
darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka
talablari va o‘quv rejasiga**

TA Q R I Z

Toshkent to‘qimachilik va yyengil sanoat institutida 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoati) ta’lim yo‘nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli qarori O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 21 yanvardagi “To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarida chuqr qayta ishlash va yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni hamda ularning eksportini rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-53-son Farmoni qoidalari va tamoyillariga amal qilingan. 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasasi xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilapda chuqup bilim, mustaqil fikplash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavrлarning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarining tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyatda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta’minlangan bo‘lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste’molchilar bo‘lgan korxona va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (paxta, to‘qimachilik va yengil sanoati) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrлar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasasi oliy ta’lim o‘quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo‘naltirilgan bo‘lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o‘z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O‘zbekiston Respublikasi davlat standaptlash tizimi qoidalapi talablapini qoniqtipadi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

“RIM KOLOSS” MChJ direktori

A.B.Abdullayev